

Causes Of Gout, Symptoms And Methods Of Prevention, As Well As Treatment Prophylaxis

Kayumova Zebo Mahamadjon qizi

2nd year student of the major of medical work

Scientific supervisor: Mirzajonova Sabokhon Abjalilovna

Assistant of the Department of Physiology

Fergana Medical Institute of Public Health

Abstract

This article provides information on the causes of gout, its manifestations and symptoms, preventive measures and treatment measures, and a brief literature review.

Keywords: Hyperuricemia, purine bases, Hypoxanthine-guanine phosphoryltransferase (GKGFT), premorbid stage, pseudophlegmonosis, urate salts.

Annotatsiya

Mazkur maqolada hozirgi kunda O'zbekiston aholisi orasida keng tarqalib borayotgan podagra kasalligining kelib chiqish sabablari, namoyon bo'lishi harakteristikasi va simptomlari, kasallikning oldini olish hamda davolash chora tadbirlari to'g'risida ma'lumotlar va qisqacha adabiyotlar sharhi keltirilgan.

Kalit so'zlar. Giperurikemiya, purin asoslari, Gipoksantin-guaninfosforizoltransferaza (GKGFT), premorbid bosqich, psevdoflegmonoz, urat tuzlari.

Kirish. Podagra [1] –organizmdagi turli shakldagi urat kristallarining, monourat yoki siyidik kislotasi shaklida, xar xil to'qimalarda cho'kishi bilan tavsiflanadigan metabolik kasallik hisoblanadi. Podagra- qadim zamonlardan beri ma'lum. Kasallikning birinchi hujjatli dalillari qadimgi Misrdan kelib chiqqan va miloddan avvalgi 2600 yilga to'g'ri keladi.Ular bosh barmog'ining podagra artritining tavsifiga asoslanadi. Miloddan avvalgi V asrda qadimgi yunon tabibi va shifokori Gippokrat o'zining „Aforizmlari“ da podagra artritining klinik belgilarini tasvirlab berdi, u yerda kasallik menopauzadan oldin amaldorlar va ayollarda sodir bo'lmasligini ta'kidladi [2] . Rim faylasufi va shifokori Aulus Korneliy Celsius podagra rivojlanishi va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish va unga bog'liq bo'lgan buyrak kasalliklari bilan bog'likni ko'rsatib berdi [3] . 150-yilda Galen aytganidek, podagra „noto'g'rilik, beparvolik va irsiyat“ [4] tufayli yuzaga keladi.Podagra - bu organizmda siyidik kislotasi va uning tuzlari (giperurikemiya) darajasining oshishi fonida artrit belgilari bilan tavsiflanadigan kasallik. Siyidik kislotasi darajasining har doim ham oshishi podagraga olib kelmasligi mumkin,lekin yosh ulg'aygan sari kasallikning rivojlanish xavfi ortadi. Podagra bilan kasallanish 1000 kishiga 3 ta holatni tashkil qiladi, bunda erkaklar ayollarga qaraganda podagra bilan taxminan 20 marta ko'proq og'riydilar.Biroq, so'nggi yillarda ayollarda podagra bilan kasallanishning o'sishi kuzatilmoqda va 50 yoshdan keyin jinslar o'tasidagi kasallanish farqi qisqarmoqda.Tananing yumshoq to'qimalarida tuz kristallari shakllanishi va yig'ilib qolishiga sabab bo'ladigan qonda siyidik kislotasining barqaror oshib borishi — podagra rivojlanishining yagona sababidir. Giperurikemianing boshlang'ich bosqichi, ya'ni sidiyk kislotasi darajasining oshishi tuz kristallari shakllanishiga va yig'ilib qolishiga sabab bo'lmaydi, lekin modda almashinuvidagi jiddiy buzilishlardan dalolat beradi, bu esa ushuu kasallikning dastlabki belgisidir.Siyidik kislotasi konsentratsiyasining o'sishiga bir necha omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Asosiyalar — irsiy moyillik, organizmga oziq-ovqat bilan ko'p miqdorda purin birikmalajori tushishi, purinlar katabolizmining (parchalanishining) ko'payishi, shuningdek, disfunktional yoki yosh bilan bog'liq. BirlamchiOziq-ovqat bilan organizmga kiradigan purin asoslarini qayta ishlash yoki tana hujayralarining nobud bo'lishi natijasida siyidik kislotasi hosil bo'ladi. U buyrak kanalchalarida filtrlanadi va odatda siyidik bilan organizmdan chiqarib tashlanadi. Agar biron bosqichda buzilishlar yuz bersa (siyidik kislotasini ko'p ishlab chiqarish, uni organizmdan

chiqarib tashlay olmaslik) giperurikemiya rivojlanishi uchun sharoit paydo bo'ladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, «giperurikemiya» tashxislanishi podagra mavjud degani emas, chunki siydiq kislotasining oshishi boshqa kasalliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq giperurikemiya podagrali jarayonlarning rivojlanishiga ko'proq sabab bo'lishi mumkin. Podagrada siydiq kislotasi kaltsiy, natriy, kaliy va boshqa elementlar bilan reaksiyaga kirishib, kristall birikmalar yoki uratlarga aylanadi. Uratlar asosan ikki ta joydagisi to'qimalarda to'planadi: Siydiq ajratish a'zolarida (buyrakdagi toshlar, siydiq yo'li toshlari). Bo'g'imlar yumshoq to'qimalari, bo'g'im atrofi to'qimalarida. Bu to'qimalarda qon aylanishining o'ziga xos xususiyatlari tufayli uratlar u yerga tushib, cho'kindi bo'lib to'plana boshlaydi. Siydiq orqali siydiq kislotasini chiqarib yuborish jarayonining sekinlashuvi hisoblanadi. Podagra shakllanishining xavf omillari qondagi siydiq kislotasi darajasining oshishiga olib keladigan holatlarni o'z ichiga oladi. Bunga sabab quyidagilar bo'lishi mumkin: Siydiq kislotasining tushishi: Oqsilni, ayniqsa qizil go'shtni ortiqcha iste'mol qilish. Endogen hosilalar: Masalan, o'smaga qarshi terapiyada yoki autoimmun jarayonlarda. Bu ikklamchi podagra hisoblanadi. Uratlar chiqarilishining buzilishi: Buyrak yetishmovchiligi bilan kechuvchi buyrak kasalliklarida, shok holatlarida, alkogolni suiiste'mol qilishda. Podagrada alkogolni ishlatish tavsiya etilmaydi. Ayniqsa purinlar almashinuvining buzilishida irsiy moyillik ham rol o'ynaydi. Birlamchi podagra holatlarining taxminan 10% ini genetik omillar keltirib chiqaradigan idiopatik podagra tashkil etadi. Qolgan 90% siydiq kislotasi chiqarilishining buzilishi bilan bog'liq. Nuklein kislotalarni tashkil etuvchi purin asoslari (adenin va guanin) ovqatdan olinadi yoki organizmda sintezlanadi. Gipoksantin-guaninfosforizoltransferaza (GKGFT) tanqisligi va 5-fosforizol-1-sintetaza faolligining oshishi kabi purinlar metabolizmidagi buzilishlar siydiq kislotasi sintezining ko'payishiga va podagra rivojlanishiga olib kelishi mumkin. **Podagra diagnostikasi klinik va laborator mezonlarni o'z ichiga oladi:** Klinik mezon: Tofuslarning mavjudligi. Laborator mezon: qondagi siydiq kislotasi darajasining oshishi. Erkaklar va ayollar uchun chegara qiymatlari farq qiladi ($>0,42$ mmol/l erkaklarda va $>0,36$ mmol/l ayollarda). Shuningdek, siydkagi siydiq kislotasi miqdori, ba'zan bir haftalik davolovchi parhezdan keyin dinamik ravishda tekshiriladi. Podagra diagnostika qilish uchun asosiy tahlil - qon biokimyosi. Klinik belgilarsiz giperurikemiya tashxis qo'yish uchun yetaricha natija bermaydi, chunki siydiq kislotasi darajasi yuqori bo'lgan bemorlarning 10% dan kamida artrit rivojlanadi. Qo'shimcha diagnostika usullariga teri ostida, balki suyaklar yoki ichki organlarda ham joylashishi mumkin bo'lgan tofuslarni baholash uchun bo'g'implarning rentgen tasvirlari va ultratovush tekshiruvlarini o'z ichiga oladi. Rentgenologik tekshirishda surunkali podagrada tog'ay destruksiyasi belgilari va suyak chetlarida eroziyalar borligi topiladi. Kolxitsin bilan sinov tariqasida davolash ba'zan tashxisni aniqlashtirish uchun qo'llaniladi, chunki tez ijobjiy dinamika podagrani tasdiqlaydi. Erkaklardagi podagra ayollarga nisbatan podagra erkaklarda ko'proq uchrashi ikki omilga bog'liq: kasallikning qisman nasli surishi, u X xromosoma orqali nasldan-naslga uzatiladi, erkaklarda esa ushbu xromosoma bitta (XY) bo'lganligi tufayli boshqa variantlarning mavjud emasligi; Erkaklar uchun odatiy bo'lgan noto'g'ri ovqatlanish odatlari va spirtli ichimlik iste'moli. Erkaklardagi podagraning o'ziga xos xususiyati ushbu jins vakillarining shifokorga podagraning o'tkir xurujlari davrida yoki kasallik tashqi belgilari paydo bo'la boshlagach — bo'g'implarning deformatsiyasi va tofuslar shakllangach borishidir. Ayollarda podagraning xususiyatlari ayollarda yumshoq to'qimalarda siydiq kislotasi darajasining oshishi va uratlarning, tuz kristallari to'planib qolishi bilan kechadigan jarayonlar klimaks davriga xosdir. Ushbu davrda podagra xavfi sezilarli darajada ko'payadi, ayniqsa irsiy moyillik mavjud bo'lsa, shuning uchun ayollardagi podagra ko'pincha 50-55 yoshlik davrda tashxis qilinadi. Ayollarning genetik moyilligi erkak jinsidan farqli o'laroq faqat ehtimolli bo'ladi. Purin birikmalarining metabolizmi uchun zarur bo'lgan fermentlarni ishlab chiqarishga javobgar bo'lgan gen X xromosomada joylashgan bo'lib, bunday xromosomalar ayollarida ikkita bo'ladi (XX). Shuning uchun, agar xromosomadagi bir genga zarar yetkazilgan bo'lsa, uning funktsiyasi boshqa xromosomadagi genning intensiv faoliyati bilan qoplanadi. Agar ikkala gen xam zararlangan bo'lsa, ayollarda podagra rivojlanish xavfi erkaklardagi bilan bir xil bo'ladi.

(deyarli 100%), kasallik boshlanish yoshi ham sezilarli darajada kamayadi. Bolalarda podagra kasalligi organizmda siyidik kislota darajasining oshishi — giperurikemiya bolalik davrida birlamchi holat yoki kasallik fonidagi ikkilamchi disfunktsiya hisbolanadi va bu irlisyat tufayli emas. Bolalarda podagra hujayralarning faol nobud bo'lishi oqibatida yuzaga keladi, bu esa o'z navbatida ko'p miqdorda purin ishlab chiqarilishiga olib keladi. Hujayralarning ko'p nobud bo'lishi suvsizlanganda, och qolganda, buyrak yetishmovchiligi yoki buyraklarning boshqa patologiyasida, turli xildagi o'simtalarning mavjudligida yuz berishi mumkin. Shuningdek, bolalikdagi podagra etiologiyasida to'liq yoki qisman gipoksantinguhaninfosforiboziltransferaza yetishmovchiligi va fosforibozilpirofosfatsintetazaning o'ta faolligi ham mavjud.^[5]

Podagraring bosqichlari. Podagraring bosqichlari quyidagi ko'rsatkichlarga qarab ajratiladi: Kasallikning ma'lum bosqichlariga xos bo'lgan klinik tasviri, qonda siyidik kislotasi darjasini, qattiq uratlar, kristalli birikmalar mavjudligi. Ushbu ma'lumotlar asosida podagraring uch bosqichdan biri farqlanadi: Boshlang'ich premorbid bosqich — giperurikemiya bilan tavsiflanadi, qonning biokimyoviy tahlili natijasida aniqlanadi. Bo'g'imlar va siyidik chiqarish tizimi shikastlanishi belgilari kuzatilmaydi, lekin nomaxsus belgilari bo'lishi mumkin: vazn olishga moyillik, ovqat hazm qilish tizimidagi buzilishlar (tez-tez qabziyat, defakatsiyadagi qiyinchiliklar), terining qichishi va boshqalar; Intermittilovchi yoki oraliq bosqich — bo'g'im atrofidagi to'qimalarda tuz kristallarining paydo bo'lishi, kam hollarda buyrak to'qimalarida ham. Bu bosqich og'riq boshlanishi, bo'g'imirning o'tkir yallig'lanishi, podagra xurujlari kabi belgilari bilan namoyon bo'ladi. O'tkir og'riq o'zidan-o'zi yo'qoladi va remissiya (oraliq yaxshilanish davri) boshlanadi, xurujlar 3-7 kun davom etadi. Podagra xurujlari boshlanishiga suvsizlansih, alkogolli ichimliklar ichish, noto'g'ri ovqatlanish, och qolish, sovqotish, o'tkir yuqumli kasalliklar, jarrohlik aralashuvi kabilar turtki bo'lishi mumkin; Podagraring surunkali bosqichi xurujlar va remissiya davrlarining almashinvi bilan kuzatiladi. Bu bosqich interval tofuslar shakllanishi va kichik tuz kristallari birikishi bilan tavsiflanadi. Kasallikga bo'lgan beparvolikka qarab tofuslar hajmi sezilarli darajada bo'lishi mumkin, og'riq berishi mumkin. Bu bosqich shuningdek shikastlangan bo'g'im sohasidagi terining qizarishi, bo'g'im harakatchanligining buzilishi, gipertermiya va mahalliy to'qimalardagi yallig'lanishni ham o'z ichiga oladi. Podagraring surunkali bosqichida ko'pincha siyiktosh kasalligi ham rivojlanadi. Intermittiv va surunkali bosqichlar o'tkir og'riqli xurujlar bilan kechadi. Ko'pincha og'riq kechki va tungi vaqtarda boshlanadi, hududiyligi esa shikastlangan bo'g'imdan tortib, to tana qismining oxirigacha tarqalishi mumkin. Yumshoq to'qimalarda yig'ilgan qattiq uratlar, kristallar bo'g'imirni, pay birikmalarini jarohatlaydi va kuchli og'riqqa sabab bo'ladi, yana bunga yallig'lanish tufayli kelib chiqadigan og'riq ham qo'shiladi. Xurujlar vaqtida og'riq qoldiruvchi preparatlar qabul qilish hech qanday foyda bermaydi. Og'riq jarohatlangan sohaga yengil bosilganda ham kuchayadi. Ko'pincha oyoq bosh barmog'ining bo'g'imirni — plyusnefalanga bo'g'imi shikastlanadi, chunki bu sohada o'ziga xos qon aylanish tizimi mavjud. Bunday joyda uratlarningning to'planishi podagraga chalingan bemorlarning 50 foizidan ko'prog'ida qayd etiladi. Shuningdek qo'ldagi barmoqlar, bilak, tirsak, tovon, tizza, son va boshqa tana qismlari bo'g'imirni shikastlanishi ham mumkin. Podargani davolash. Kasalxonaga yotqizish: birinchi marta qo'zg'alganda, davolash bilan revmatolog, terapevt yoki jarroh kabi shifokorlar davolaydi. Podagra bilan og'rigan bemorlarning 60-80 foizida klassik og'ir xurujlar va yaqqol klinik belgilari aniqlanadi. Surunkali kasallikning remissiyasi fonida qattiq og'riq boshlanadi, xurujdan keyin remissiya davri qaytadan boshlanadi. Xurujning davomiyligi bemorning umumiyligi, holatiga, terapiya turlariga va kasallikning bosqichiga bog'liq. Jarohatlangan bo'g'im sohasidagi o'g'riqqa qo'shimcha ravishda umumiyligi sog'lik holatining buzilishi, holsizlik, bosh og'rig'i, subfebril darajadagi isitma, shish, qizarish, bo'g'im atrofidagi terining ko'karishi (sianoz) kuzatiladi. Podagraring shunindek quyidagi shakllari farqlanadi: O'tkir osti shakli — sustroq namoyon bo'ladiyan simptomatika bilan tavsiflanadi, yaqqol namoyon bo'ladiyan og'riqlarsiz, shishlarsiz kechadi; Psevdoflegmonoz shakli — podagraga xos klinik tasvirdan farqlanadi: periartikulyar (bo'g'im atrofi) to'qimalarning o'tkir yallig'lanishi, yuqori tana harorati (39 °C va

undan baland), ahvolning yomonlashuvi, varaja, tananing umumiy intoksikatsiyasi alomatlari kuzatiladi; Revmatoidga o'xshash podagra shaklida klinik tasvir revmatologik kasalliklariga o'xshash bo'ladi, masalan, surunkali artrit. Odatda bu shaklda alomatlar barmoqlar va bilaklarning bo'g'imgani hududida tez-tez uchraydi. Ushbu shakldagi podagra xurujlar davomiyligi bilan ajralib turadi, ular bir necha haftadan bir oygacha davom etadi; Podagraning alohida shakli infektsion-allergik poliartrit bilan o'xshash alomatlar bilan birga keladi. Bemorlarning 5% da migratsiya qiluvchi poliartritning klinik ko'rinishi kuzatiladi, keyin tashxisiga aniqlik kiritilgach, maxsus podagra deb ajratiladi; Kam alomatli podagrada xira alomatlar, yengil og'riq, biroz shish, ta'sirlangan bo'g'im ustidagi terining qizarishi bilan kechadi.

Umumi chora-tadbirlar: oyoqlarni mahkamlash, muz, isitadigan kompresslar, ko'p ichimlik ichish yoki infuzion terapiya.

Dori vositalari: Og'riq va yallig'lanishni kamaytirish uchun kolxitsin yoki YAKNDV. Glyukokortikosteroidlar NYAQVning yetarli ta'sir ko'satmaganda.

Fizioterapiya: Ultrabinafsha nurlar, O'YuCh, impulsli toklar, dimeksid applikatsiyalari. Parhez: purinlarni cheklash (go'sht, baliq, qahva, choy). Erta tashhislash va adekvat davolashda podagra kamdan-kam hollarda jiddiy oqibatlarga olib keladi va kamdan-kam hollarda o'tkirlashadi. To'g'ri davolanmasa, giperurikemiya bo'g'implarning qaytmas deformatsiyasiga va ularning harakatchanligining cheklanishiga olib kelishi mumkin. Podagra ko'pincha buyrak funksiyasini yomonlashtiradigan va giperurikemiyaning kuchaytiradigan siyidik-tosh kasalligi bilan birga keladi. Xavf guruhi: Keksa yoshdagи erkaklar. Ateroskleroz, qandli diabet, buyrak kasalliklari, arterial gipertenziya bilan og'igan shaxslar. O'smaga qarshi davo olayotgan bemorlar. Oilaviy podagra tarixiga ega shaxslar. Ko'p oqsilli ovqat iste'mol qiluvchilar va spirtli ichimliklarni suiiste'mol qiluvchilar. Podagra profilaktikasi: to'g'ri ovqatlanish: asosiy e'tibor qondagi siyidik kislotasi darajasini nazorat qilish va parhezga qaratilishi kerak. Tavsiya etiladi: Oqsil va yog'larni iste'mol qilishni cheklash. O'tkir va dudlangan taomlar, konservantlar va ziravorlarni chiqarib tashlang. Sabzavotlar (dukkaklilardan tashqari), mevalar va sut mahsulotlari miqdorini ko'paytirish. Uratlar ajralishini yaxshilash uchun ko'p suyuqlik iching. Alkogolni cheklash: Siyidik kislotasi darajasini oshirish xavfini kamaytiradi. Kasallikning oldini olish, ayniqsa, oilada podagra bemorlari bo'lsa yoki uning xavfini oshiradigan kasalliklar aniqlanganda juda muhim. Agar inson podagra xavfi ostida bo'lmasa ham quyidagi qoidaga rioya qilishi kerak. Sababi podagra faqat qariganda emas, balki yosh va sog'lom insonlarda ham uchrashi mumkin. Ko'proq suyuqlik ichish – suv tanada peshob kislotasini eritishi va uni chiqarib tashlashga xizmat qiladi. Vaznni nazorat qilish – tadtqiqotchilar ortiqcha vazn podagra xavfini sezilarli darajada oshiradigan jiddiy omillardan biri ekanligini isbotladi. Inson qanchalik to'la bo'lsa, uning tanasi peshob kislotasini shuncha tez ishlab chiqaradi va buyrak ishlashi esa sekinlashadi. To'g'ri ovqatlanish – peshob kislotasini ishlab chiqaradigan oziq-ovqat mahsulotlarini kamaytirish zarur. Masalan, go'sht, soya, loviya, yasmiq, no'xat kabilalar. Spirtli ichimliklardan voz kechish – umuman ushbu ichimliklarni qabul qilish mumkin emas. Lekin ayrim juda qattiq bog'lanib qolganlar iloji boricha kamayitrishga harakat qilishi kerak. Yo'Idosh kasalliklarni davolash: Podagra rivojlanishini oldini olishga yordam beradi. Organizmni umumi mustahkamlash: almashinuv jarayonlarini qo'llab-quvvatlash va yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari ishini yaxshilash uchun dozalangan jismoniy mashqlar tavsiya etiladi. Parhez Podagra paytida ovqatlanish: Parhezning asosiy tamoyillari (6-stol): Istisno: purinlarga boy mahsulotlar (go'sht, baliq, dukkaklilar), oksalat kislotasi, dudlangan mahsulotlar, tuzli va achchiq pishloqlar, qovurilgan va tuzlangan baliq, ikralar, konservalar. Cheklov: oqsillar (parhezli go'sht navlariga ustunlik berish - kurka, quyon, tovuq), qiyin eriydigan yog'lar, tuz. Ko'paytirish: suyuqlik iste'moli (qarshi ko'rsatmalarni hisobga olgan holda), sut mahsulotlari, sabzavotlar, mevalar. Sho'rlanish: sut mahsulotlari, sabzavotlar, mevalar; vegetariancha parhez afzalroq. Ruxsat etilgan mahsulotlar: ko'katlar (petrushka va ko'k piyozdan tashqari), qaynatilgan go'sht va baliq. Taqiqlangan mahsulotlar va ichimliklar: Oziq-ovqatlardan: submahsulotlar, dukkaklilar, souslar, ziravorlar. Ichimliklardan: qahva, kakao, achchiq choy,

alkogol (jumladan, pivo). Shirinlikdan: shokolad, krem. Rezavorlardan: malina, uzum, anjir. Ruxsat etilgan ichimliklar: Sharbatlar (ayniqsa, yangi siqilgani), qatiq mahsulotlari (yogurt, kefir), sut. Afsuski, podagrani to'liq davolashning iloji yo'q. Ammo zamonaviy tibbiyotda kasallikning oldini olish va og'riqni to'xtatish uchun kerakli muolajalar qilinadi. Buning uchun og'riq qoldiruvchi va yallig'lanishga qarshi dorilar qo'llanadi. Shuningdek, fizioterapiya ham buyuriladi[6]. Kasallikni davolashning eng yaxshi usuli esa parhez bo'lib qolmoqda. Masalan, qizil go'sht, spirtli ichimliklar, qo'ziqorin va dukkakli o'simliklarni ratsiondan chiqarish tavsiya etiladi. Agar tofuslar shakllana boshlagan bo'lsa, u holda ularni jarrohlik yo'li bilan olib tashlash mumkin. Davolashda asosan sink oksidi. Vonoprazan, Ubroge pant, Trazodon, Tramadol kabi preparatlardan foydalanish yaxshi samara beradi.[7]

Xulosa: Podagra ko'pincha bo'g'im og'riqlari bilan bog'liq kasallik hisoblanadi. Odatda bu kasallik oqsilli mahsulotlarni ko'p iste'mol qilish yoki fermentlar faoliyati, funksiyasi, tuzilishi o'zgarishi natijasida kelib chiqadi. Kasallikni oldini olish uchun sog'lom turmush tarziga amal qilish muhim sanaladi. Davolashda albatta siydik va qon tahlillari tekshiriladi. Bu kasallik afsuski hozirda aholi orasida keng tarqalib va yosharib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

R. A. Sobirova O. A. Abrorov. F. X. Inoyatova A. N. Aripov BIOLOGIK KIMYO Toshkent "Yangi asr avlod".

Мазуров. В. И. Клиническая ревматология М: -ГЕОТАР Медиа 2022

Richette, P., & Bardin, T. (2020). Gout. *The Lancet*, 395(10242), 441–455

med24.uz, 2023–2025. "SMART MEDIA SOLUTIONS

Зилва Дж. Ф., Пэннелл П. Р.. Клиническая химия в диагностике и лечении. М.: Медицина, 1988. ISBN 5-225-00220-X.

Garrod A. B.. The nature and treatment of gout and rheumatic gout. London: Walton and Maberly, 1859.

McCarthy D. J., Hollander J. L. Identification of urate crystals in gouty synovial fluid. // Annals of Internal Medicine. – 1961. – Vol. 54. – P. 452.